



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Shaniyazova Dilafruz

Sabirovna

*Qashqadaryo VXTXQTMOHM Pedagogika, psixologiya va ta'lif
menejmenti kafedrasiga katta o'qituvchisi*

**So'nggi yillarda xalq ta'limi tzimida amalga oshirilayotgan islohotlarning
izchilligi**

Annotatsiya – ushbu maqolada mamlakatimizda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularni amaliyotga tadbiq etish dolzarbligi, islohotlarning samaradorligi natijasida pedagog xodimlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar izchilligi bayon etilgan.

*Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni
buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lif va tarbiyadir. Ertangi kunimiz,
Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lif tizimi va farzandlarimizga
berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'iq.*

SHavkat MIRZIYoEV

Prezidentimiz davlat rahbarligi faoliyatlarining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lif tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. “Men yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni barpo etishda siz, muhtaram pedagoglarni, professor-o'qituvchilarni o'zim uchun eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Sizlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatingizni qo'llab-quvvatlash, sizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o'zimning muqaddas burchim, deb hisoblayman”.



Darhaqiqat, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotgan bir davrda intellektual salohiyatlari yoshlarni tarbiyalash naqadar dolzarb ekanligini isbotlashga hojat yo'q, albatta. CHunki, bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotiga yangicha qaraydigan mustaqil fikrlovchi, ishbilarmon, buyuk kelajak poydevorini quruvchi mutaxassis kadrlarni tayèrlash respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim dolzarb vazifadir. Ta'lim islohoti sharoitida bu ulkan vazifani to'la amalga oshiradigan zamonaviy va jahoning eng ilg'or ta'lim texnologiyalaridan mohirona foydalana oladigan pedagog va kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ortdi.

Tajriba ko'rsatadiki, texnologiyalar ta'lim oluvchilarning intellektual ijodiy va axloqiy kamolotining zaruriy sharti hisoblanadi. Faqat shu asosda, ta'limning hamma bo'g'inlarida pedagogik jarayonlarning chuqur mohiyatini tashkil etuvchi rivojlanish, uning asosiy tushunchasiga aylanuvchi, harakatlanuvchi kuch, yangi pedagogik texnologiyalardir. Ko'p mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikamizda o'tkazilgan tadqiqotlar ta'lim tizimining hamma bo'g'inida eng katta kamchilik, tinglovchilarning olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olmasligini, murakkab haètiy va iqtisodiy vaziyatlardan mustaqil chiqib keta olmasligini ko'rsatdi. Ta'lim islohotimizda jahon ta'limini rivojlantirishning ijobiylari xususiyatlarini, ta'limning amaliy jihatni, ya'ni inson hayoti – shaxsga yo'nalganlik tajribasini va uni rivojlantirishning muhim vositasi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida uni rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi.

Islohot oqibatida ta'lim tizimimiz rivojini jahonga yo'naltirish, yana bir muhim vazifa -ta'lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirish tajribasidan unumli foydalanishni talab qiladi. Bozor o'z mohiyati bilan o'zgaruvchan. Unda, bugungi holat ertaga to'g'ri kelmaydi. SHu asosda, insoniy va iqtisodiy munosabatlar ham keskin o'zgaruvchan tus oladi. Bu esa, ta'limning amaliy yo'nalishini kuchaytirish, ta'lim jaraènida ob'ektlar o'rtasidagi bog'liqlikni, insoniy munosabatlar mohiyatini tushuntirish, kishilar bilan muloqotga kirisha olish, fikrini to'g'ri bayon qilish uchun uni boshqalarga ma'qullah, organizm xususiyati qobiliyatiga mos faoliyatga o'rgatish, belgilovchi vosita hisoblanadi. Ta'lim jarayonida bu talablarni amalga oshirishda turli vosita va usullar asosida tayyor bilimlarni o'rganish miqdorini kamaytirib, ta'lim oluvchilar intellektual, ijodiy va mustaqil fikrlash faoliyatini kuchaytirish, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash, nazariy bilimlarni amaliy qo'llash holatiga qo'yuvchi vaziyatlar yaratish zarur bo'ladi.



Ta'limning amaliy tomoni, ham shaxs uchun, ham davlat uchun foydali hisoblanadi. CHunki, har bir mamlakat ta'lim tizimi, uning eng muhim iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarini yechishga, xizmat qilishi kerak. Ta'lim inson uchun o'z shaxsiy hayotini qurish, kasb tanlash va kasb sohibi sifatida o'zini namoyon qilish, jamiyatdagi munosib o'rnni topishga xizmat qiladi. Demak, ta'lim muassasasi insonni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy, kasbiy faoliyatiga tayyorlovchi joydir. SHu asosda, ta'lim asosini isloh qilish, jamiyatni rivojlantirishni tezlashtirishning muhim omili hamdir. SHuning uchun, ta'lim jamiyat va shaxs ehtiyojlariga sezgirlik bilan javob berishi lozim. Jahon rivojlanishining umumiy xususiyatidan kelib chiqib, hozirgi davr uchun mustaqil fikrlovchi, o'z aqliy va ijodiy qobiliyatini amaliyotda qo'llay oladigan, o'ziga to'g'ri baho beradigan shaxsni shakllantirish, ta'limning asosiy maqsadini belgilaydi.

Bundan ko'rinish turibdiki, ta'lim islohoti mamlakatimiz uchun ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik zaruratga aylandi. Uni jahon ta'limining ilg'or an'analari asosida amalga oshirish har jihatdan foydali hisoblanadi. Islohot uzlusiz ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarini: mafkuraviy, tashkiliy-pedagogik, mazmun va maqsad, shakl va metodlarini qamrab olgan keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy-siyosiy hamda pedagogik jarayondir. Jumladan, biz uning pedagoglar malaka oshirish tizimi oldida qo'yayotgan talablar asosida qarab chiqamiz. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy – mafkuraviy o'zgarishlar hamda ta'lim islohoti talablari nuqtai nazaridan pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimiga yondashadigan bo'lsak, yangilanish jarayoniga javob bermayotganligining guvohi bo'lamic. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish» to'g'risidagi 5538-sun farmoniga muvofiq, «Xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy – texnik ta'minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me'moriy yechimlar innovatsion ishlanmalarni va AKTni joriy etishning pastligi sababli xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish... rahbar va pedagog xodimlarni tanlash va tayyorlash, malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy –xuquqiy mexanizmlarini tadbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish» bugungi davrning eng dolzarb masalasi sifatida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy o'zgarishlar hamda ta'lim islohoti talablari xalq ta'limi tizimi pedagog kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga bog'liqligini ko'rsatdi.

Jahon andozalariga mos yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash ko'p jihatdan kasb-hunar ta'limining barqaror rivojlanishiga hamda uni ta'minlovchi pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liqidir. O'quv jarayonini jahon standartlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari talabi asosida tashkil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Pedagog kadrlarning malaka oshirishini zamonaviy texnologiyalar asosida, ishlab chiqarishni tashkil qilgan muassasalarda bevosita tashkil qilish hamda ular



talablari asosida hamkorlikda mutaxassislar tayyorlash tizimini shakllantirish ham dolzarb masala sifatida ta'kidlandi. Pedagogik tajribalarni MDH mamlakatlari va xorijiy davlatlarda malaka oshirish sohasidagi yangiliklar, izlanishlarni, shu sohaga doir tadqiqot yo'nalishlari bilan tanishtirib borish ham muhimdir. Ushbu ma'lumotlar malaka oshirish muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarga yaqindan yordam berish bilan birga, malaka oshirishni zamonaviy darajada tashkil qilish va uni isloh qilishga ham xizmat qiladi. Malaka oshirish borasidagi yangiliklarni tezkor amaliyatga joriy qilish, pedagoglik kasbining tez o'zgaruvchanligi, boshqa kasblar mutaxassislarini tayyorlash poydevori rolini o'ynashini ham unutmaslik lozim.

Mamlakatimizda yangicha, jahon andozalariga hamohang ta'lim mazmunini joriy qilish o'z-o'zidan emas, balki barcha pedagoglar ongi, tajribasi, ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi. Ta'lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddati axborot olamida to'g'ri yo'l topa oladigan, axborotlardan unumli foydalana oladigan, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, kasb-hunar o'rganishiga foydalana oladigan, intiluvchan, ijodkor kadrni shakllantirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, bu ishning qanchalik muhimligi: ta'lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasisin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta'lim standartlari yaratilmasin, ularni o'quv-tarbiya jaraenlariga joriy qilish o'qituvchilarga bog'liq ekanligini ko'rsatti. Modomiki, shunday ekan, malaka oshirish jarayonida nimalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim yoki uning maqsadi nimalarda o'z ifodasini topadi? Eng muhimi:

- kasbiy va mafkuraviy kompetentlik darajasini muntazam shakllantirib borish;
- pedagoglarda yangiliklarga tashnalik va doimo mustaqil o'qish hissini tarbiyalash;
- o'quv jarayoni va malaka oshirishni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish;
- huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan ishslash savodxonligini oshirib borish;
- xorij ta'lim tizimi bilan muntazam tanishib, amaliyatda qo'llash;
- axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali o'z mahoratini oshirib borish.

Pedagogik kadrlar malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish mazkur soha xodimlarining o'z kasbiy mahoratini oshirish, ularning kattalar ta'limi xususiyatlarini, qonuniyatlarini tushunish borasidagi tayyorgarliklarini takomillashtirish ham, muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limga oid islohotlar dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim rivoji darajasiga erishishi uchun oliyanob sa'yi-harakatlardir. Bu bizning rivojlangan davlatlar tarixiy tajribasidan o'rinci foydalanish va o'z ichki imkoniyatlarimiz, tarixiy ildizlariga tayanib, ta'lim tizimimizni yaqin vaqtida ilg'or mamlakatlar darajasiga ko'tarish, ulardan mukammalroq milliy ta'lim-tarbiya tizimining shakllanishiga ijtimoiy-iqtisodiy asos



yaratishni taqozo qiladi. Zero, muhtaram Prezidentimiz aytganidek, «Professional ta’lim sohasida bugungi mehnat bozori va xalqaro standartlarga to’la mos keladigan butunlay yangi tizimga o’tishni jadallashtirishimiz kerak».

Umuman olganda, mustaqillik yillarda ta’lim tizimini isloq qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarga zamonaviy bilim va kasb-hunarni o’rgatish bo’yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Bir necha yillar davomida ta’lim sohasidagi o’zgarishlar sur’ati oxirgi yillarda yanada tezlashdi: maktabgacha ta’lim mutlaqo o’zgardi, bu tizimni samarali isloq qilish uchun davlat-xususiy sheriklik munosabatlari yo’lga qo’yildi, umumiy o’rtalim tizimidagi o’zgarish sifatida boshlang’ich sinflarda besh kunlik o’quv joriy etildi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog’i kengaytirildi, o’qituvchilarining ish haqlari oshirildi, mакtab ta’limi 11 yil etib belgilandi, kasb-hunar ta’limi mutlaqo yangilandi, oliy ta’limda esa abituriyentlar bir vaqtning o’zida uchtagacha oliy ta’lim muassasasiga hujjat topshirish imkoniyatiga ega bo’ldi, kirish test sinovlari to’liq shaffof holatda tashkil etildi, tabaqlashtirilgan shartnomaga to’lovi asosida o’qishga kirish, sirtqi, kechki ta’lim joriy etildi, xalqaro hamkorlikka sezilarli o’zgarishlar yuz berdi, professor-o’qituvchilar oylik maoshlari 2018-2019 o’quv yilining o’zida uch marotaba oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3931-sон Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841-sон.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr PF- “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6108-sonli Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4884-sonli Qarori.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvar “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiyatdagi faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4963-sonli Qarori.
5. “Islohotlar va qarorlar” telegram rasmiy kanali.
6. “Xalq ta’limi xodimlari uchun” telegram rasmiy kanali.
7. Karimova F. Buyuk kelajak — besh tashabbus//www.bong.uz.
8. Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur// www.uza.uz.